O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ 217
2022 yil "29" 08

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlari prorektori
________ O.N.Bozorov
"29" 08 2022 yil

# "KASBIY FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI" FANIDAN

# ISHCHI O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 300000 – Ishlab chiqarish - texnik soha

**Ta'lim sohasi:** 310000 – Muhandislik ishi

**Ta'lim yo'nalishi:** 5321300- Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologoiyasi

(sirtqi bo'lim 4 kurs talabalari uchun)

**Qarshi - 2022.**

1

Ishchi dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 02.05.2019 yilda 394-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Kasbiy faoliyat psixologiyasi» fanining namunaviy dasturi asosida tuzildi.

Fanning ishchi o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining 2022 yil 26-avgustidagi 1-sonli yig'ilishida ma'qullangan.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil 29- avgustidagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

## Fan dasturi uchun mas'ullar

**N. I. Amirov -**"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi
**J. U. Shonazarov -**"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

## Taqrizchilar

Sh. Nurilllayeva – QDU dotsenti
O.Begimov QarMII professori

# KIRISH

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga asosan, har tomonlama yetuk muhandis-pedagoglar tayyorlash ishida Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani muhim ahamiyatga egadir. Bo`lajak mutaxassislarni tayyorlashda pedagogika, psixologiya va ixtisoslik fanlari o`qitish metodikasi fanlarini uzviy aloqada o`rganishga alohida e`tibor berildi.

Kadrlar tayyorlash ishini takomillashtirishda O`zbekiston xalqining milliy ruhiyatiga xos bo`lgan etnopsixologik me`yorlarning xususiyatini ham e`tiborga olish zarurligi ta`kidlab o`tilgan.

Shu jihatdan qaralganda bo`lajak muhandis-pedagog ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda sog`lom ruhiy vaziyatni vujudga keltira olish qobiliyatiga ega bo`lish kerak. Bu esa muhandis-pedagoglar tayyorlash o`quv rejasida Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanini o`rganishga e`tibor berishni taqazo qiladi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi kursini o`rganish uchun, Kasbiy psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya, muhandislik-psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, har tomonlama yetuk va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar, O'zbekistonda kasb ta'limining asosiy mazmuni, tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari kabilarni talabalarga o'rgatishda qo'l keladi. Shuningdek, "Kasbiy faoliyat psixologiyasi" fani fundamental fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

## O`quv fanining maqsadi va vazifalari

**"Kasbiy faoliyat psixologiya" kursini o'qitishning asosiy maqsadi:**

**Fanning predmeti va mazmuni**: talabalarga kasbiy faoliyat psixologiyasiga oid asosiy tushunchalarni, kasb ta'limi shakllari, usullari, vositalari va tamoyillarini o'rgatish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash muammolarini echish, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish, kasbiy mahoratni oshirish masalalarini qamraydi hamda nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda ta'lim muhitining psixologik xavfsizligini, ta'lim muhitida psixodiagnostik faoliyatni, o'qitish texnologiyalarining psixologik tavsifini, ta'lim jarayonida muloqot va hamkorlikni, kasbiy ta'limga oid ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir

**Fanning vazifasi** – talabalarga o'quvchilarning yoshi, jinsiy va individual xususiyatlarini hisobga olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashdan iborat.

**Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar**

" Kasbiy faoliyat psixologiyasi" o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida ***talaba:***

- pedagogik psixologiyaning vazifasi, qo‘llanish sohasi, predmeti va asosiy muammolari, metodlari;
- o‘qitish psixologiyasi;
- o‘quv faoliyati;
- didaktikaning asosiy nazariy muammolari;
- kasbiy o‘qitish jarayonlarining modellari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi***;
- faoliyatga yo‘nalgan o‘qitish nazariyasining asoslarini bilishi;
- ta'lim muhitining psixologik xavfsizligini aniqlash;
- ta'lim muhitida psixodiagnostik faoliyatni amalga oshirish;
- o‘qitish texnologiyalarining psixologik tavsifini keltirish;
- didaktik bilim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalaridan foydalanish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;***
- o‘qitish psixologiyasi tamoyillaridan mustaqil foydalanish;
- o‘quv faoliyatini nazorat qilish va baholash;
- o‘qitishni individuallashtirish va differensiallash;
- o‘quvchilarning yoshi, jinsiy va individual xususiyatlarini hisobga olish ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.***

**Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

Ushbu fan I, II, III - semestrlarda o‘qitilishi rejalashtirilgan. Mazkur fan kasb-ta’lim dasturining umumkasbiy fanlar blokiga tegishli bo‘lib, o‘quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy–iqtisodiy fanlar (O‘zbekiston tarixi, falsafa, ma’naviyat asoslari, madaniyatshunoslik, milliy g‘oya), umumkasbiy (yosh fiziologiyasi va gigienasi, psixologiya, pedagogika) va ixtisoslik fanlariga asosiy baza bo‘lib xizmat qiladi.

**Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani bo‘lajak mutaxassislarni o‘z kasbini puxta egallash va ularni tarbiyalashdek juda muhim vazifani hal qilar ekan, ulkan nazariy va amaliy tayyorgarlikni nazarda tutadi. Bitirish kursidan oldingi va bitiruvchi kurs talabalarining o‘quv-tarbiyaviy amaliyoti ularning oliy ta’lim muassasasidagi kasbiy tayyorgarligining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Amaliyot jarayonida talabalar o‘quvchilarni tarbiyalashga har tomonlama yondashadilar. ularda axloqiy, aqliy, milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish, ekologik, iqtisodiy, jismoniy, xuquqiy, oilaviy hamda estetik jihatdan tarbiyalash birligini ta’minlaydilar. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fani hisoblanib, ishlab chiqarish tizimining ajralmas bo‘g‘inidir.

## Fanni o‘qitishdagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari

Talabalarning “Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanini o‘zlashtirishlari uchun ilg’or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion- pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, shuningdek “insert”, “blits-so‘rov”, “aqliy hujum”, “guruh bo‘lib ishlash” kabi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

## “Kasbiy faoliyat psixologiya” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

| | |
|---|---|
| Umumiy o'quv soati | 130 soat |
| Shu jumladan: | |
| Jami auditoriya soatlari | 18 soat |
| Ma'ruza | 10 soat |
| Amaliy mashg'ulotlar | 8 soat |
| Mustaqil ta'lim | 112 soat |

| № t/r | Ma’ruza mashg’ulotlar mavzulari | Dars soatlari hajmi |
|---|---|---|
| 1. | **Mavzu: Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari.**<br>1. Kasbiy psixologiya bo`limiga kirish. Kasb psixologiyasining predmeti, vazifalari va ahamiyati.<br>2. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o’rni.<br>3. Kuzatish metodlari. Test metodlari. Kasbning psixologik mohiyatini ochishda fanlar interasiyasiga asoslanuvchi kompleks (majmuaviy) metodlari.<br>4. Psixologik modellashtirish - amaliy psixologiyaning tadqiqot vositasi ekanligi.<br>5. Maktabga va ijtimoiy soxaga psixologik yordamning yo‘nalishlari. Psixokorreksiya haqida tushuncha. Shaxsni ijtimoiy guruhlarda o‘rganishnish ahamiyati. | **2** |
| 2. | **Mavzu: Kasbiy layoqat tashxisi. Professiografiyaning mohiyati, uning yuzaga kelish tarixi**<br>1. Kasbiy layoqatni aniqlovchi testlarning ishonchliligi. Shaxs psixodiagnostikasi. Kasbiy psixodiagnostika.<br>2. Professiogramma (professiografiya) tarixi: kelib chiqish sabablari, imkoniyatlari, takomillashishi.<br>3. Professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari. Professiografik tadqiqotlarni o'tkazish.<br>4. Professiografiyaning tuzishili.<br>5. Psixogramma tushunchasi. Turli kasblarning shaxs oldiga qo'yadigan talablari. | **2** |

| | | |
|---|---|---|
| 3. | **Mavzu: Ilk o’spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari. Talabalar psixologiyasi va o’quv faoliyati**<br>1. Ilk o’spirinlik davrining psixik xususiyatlari. Ilk o’spirinlik davrida aqliy rivojlanish.<br>2. Ilk o’spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari.<br>3. Yosh davrlari klassifikasiyasi, xar bir yosh davrning o‘ziga xosligi, yangiliklari va rivojlanish shartlari. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida shaxs taraqqiyotining o‘ziga xos qonuniyatlari.<br>4. O‘spirinlik davridagi do‘stlik, sevgi va sadoqat xislatlarining ko‘rinishlari, ularni tarbiyalash yo‘llari.<br>5. Talabalarning psixologik xususiyatlari. Talabalar tafakkurining xususiyatlari.<br>6. Talaba shaxsining ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini tekshirish. Oliy ta’limdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo’llari. Darsni psixologik tahlil qilish. | **2** |
| 4. | **Mavzu: Tarbiya psixologiyasi. Shaxsning ma'naviy sohalarini shakllantirishning psixologik tomonlari**<br>1. Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yo’nalishi sifatida.<br>2. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlari.<br>3. Tarbiyasi “qiyin” bolalar psixologiyasi.<br>4. Shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini o‘zgartiruvchi psixologik omillar. Ma’naviy va insoniy tasavvurlarni to‘g‘ri shakllantirishda ma’rifiy tadbirlar va bilimdonlikning o‘rni.<br>5. Shaxsning ma'naviy rivojlanishida yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar. Xalqimizning urf – odatlari va an'analariga qiziqishni shakllantirish.<br>6. Ma'naviyat, inson ruhiy olamining axloqi va fazilati sifatida. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. | **2** |
| 5. | **Mavzu: Pedagog faoliyatining psixologik muammolari. O'qituvchi psixologiyasi.**<br>1. Tarbiyalash va o’z-o’zini tarbiyalash psixologiyasi. Pedagogik jarayonda o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirish muammolari.<br>2. O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashiga imkon beradigan omillar.<br>3.O’qituvchi va o’quvchi: ta’lim jarayonida muloqot va hamkorlik.<br>4. Pedagogning pedagogik faoliyatni egallashidagi psixologik muammolar. Kasbiy pedagogik ong va o’z-o’zini anglash.<br>5. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va vazifalari. Pedagogik faoliyat mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish.<br>6. O'qituvchi shaxsi xususiyatlarining psixologik tomoni. Pedagogik qobiliyatlar va qiziqishlar. O'qituvchi nutqining xususiyatlari. | **2** |
| **JAMI** | | 10 |

### 3. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanidan seminar mashg’ulotlari

| № t/r | Seminar mashg’ulotlar mavzulari | Dars soatlari hajmi |
|---|---|---|
| 1. | Kasb psixologiyasi fani predmeti va kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari | 2 |
| 2. | Kasbiy layoqat tashxisi. Professiografiyaning mohiyati, uning yuzaga kelish tarixi. | 2 |
| 3. | Professiografik tadqiqotlarni o’tkazish. Kasblar va ularning klassifikasiyasi. Professiografiyaning mohiyati va uning tamoyillari. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi. Shaxsning biogenetik va sosiogenetik nazariyalari. Shaxs faolligi va yetaklovchi faoliyat. Shaxsning bilish faoliyati. Diqqat turlari va ularning xususiyatlari. | 2 |
| 4. | Ilk o’spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari. Talabalar psixologiyasi va o’quv faoliyati. Tarbiya psixologiyasi. | 2 |
| **JAMI** | | **8** |

## IV. MUSTAQIL TA’LIM

Talabaning mustaqil ta’limi har bir modul bo’yicha pedagogning rahbarligida oraliq o’tkaziladi. Mustaqil ta’lim mavzulari yakuniy baholashning 5-10% tashkil qiladi.

| **№ t/r** | **MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI** |
|---|---|
| 1. | Psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari. |
| 2. | Shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini o’zgartiruvchi omillar |
| 3. | Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyada yosh davrlarini tabaqalash muammolari |
| 4. | Ijtimoiy hulq motivlari va shaxs motivasiyasi |
| 5. | Motivlarning turlari |
| 6. | Kasbiy faoliyatni baholashning shakllari va ularning psixologik tasnifi. |
| 7. | Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari |
| 8. | Temperament va faoliyatning samaradorligi masalasi |
| 9. | Xarakterning psixologik strukturasi |
| 10. | Temperamentni o’rganish usullari |
| 11. | Xarakterning shakllanishida tarixiy, ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatlarning roli |
| 12. | Muloqotda namoyon bo’ladigan xarakter xislatlari |
| 13. | Ma’naviy–ahloqiy xarakter fazilatlari va ularning shallanishi |
| 14. | Ilk o’spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari. |
| 15. | Talabalar psixologiyasi va o’quv faoliyati |
| 16 | Reoriyentasiya psixologik muammo sifatida |
| 17 | Rivojlanishda shaxsning yoshi va o’ziga xos xususiyatlarining roli |
| 18 | Fikr tarbiyasi, mustaqil ijodiy fikrlashni tarbiyalash |

| | |
|---|---|
| 19 | Kasbiy fikrlashning afzalliklari |
| 20 | Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining xususiyatlari |
| 21 | Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari |
| 22 | Rahbar faoliyatining ijtimoiy psixologik tavsifi. |
| 23 | Ta'lim jarayonini boshqarish nazariyalari |
| *Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan esse, ma'ruza va amaliy mavzular bo'yicha konspektlar, testlar, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.* | |

## V. FAN BO'YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASh VA NAZORAT QILISh MEZONLARI.

| BAHOLASh USULLARI | TEZKOR TESTLAR, YOZMA ISh, OG'ZAKI SO'ROV, PREZENTATSIYALAR |
|---|---|
| Baholash mezonlari<br><br>*5 "a'lo".* | ***5 "a'lo" baho uchun.***<br>**1. Mashg'ulot mavzusi bo'yicha konspektlarda mavzuni to'liq ochib berishi:**<br>- mavzu bo'yicha yangi manbalardan (internet, xorijiy adabiyot manbalaridan foydalanish va b.) foydalangan bo'lishi;<br>- mavzu bo'yicha amaliy ko'nikma to'liq yoritilganligi;<br>- grafikli organayzerlar va prezentatsiyalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritishi;<br>- aniq tasavvurga ega bo'lishi.<br>**2. Mashg'ulotda talabaning nazariy bilimini baholash:**<br>- talaba mashg'ulot mavzusi bo'yicha talabaning javobi to'liq, turli manbalardan olingan qo'shimcha ma'lumotlarga boy, bilim hajmi dastur doirasidan chiqadi. Dasturda tavsiya etilgan asosiy adabiyotlarni to'liq o'zlashtirgan va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanish.<br>- mavzu bo'yicha savollarga javob berishda ijodiy fikrlaydi, aniq javob beradi va javobini mantiqan asoslaydi.<br>- talaba mavzu muhokamasi, munozaralarda faol qatnashadi, o'z fikrini himoya qila biladi. Interaktiv o'yinlarda faol va ijodiy qatnashadi.<br>**3. Test topshirig'ini baholash: "a'lo" baho** uchun talaba test topshiriqlarini 86-100%ga yechadi;<br>**4. Vaziyatli masalani yechishni baholash:**<br>- talaba mashg'ulotda berilgan vaziyatli masalani o'z vaqtida, sifatli bajaradi. Vaziyatli masalalarni yechishda ijodiy fikrlaydi, aniq javob beradi va javobini mantiqan asoslaydi.<br>- talaba vaziyatli masalani muhokamasi, munozaralarda faol qatnashadi, o'z fikrini himoya qila biladiva ijodiy qatnashadi – talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, turli materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo'ladi. |
| | ***4 "yaxshi" baho uchun.***<br>**1. Mashg'ulot mavzusi bo'yicha konspekti quyidagilarga javob berishi lozim:**<br>- mavzu bo'yicha yangi manbalardan (internet va b.) foydalangan holda mavzuni yoritish;<br>- grafikli organayzerlar va prezentatsiyalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritish;<br>- mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yuritish;<br>- mavzu mohiyatini tushuntirib bera olish |

| | |
|---|---|
| *4 “yaxshi”.* | **2. Mashg’ulotda talabaning nazariy bilimini baholash:**<br>- talaba o’rganilayotgan mavzularni aloqadorligini bilish hamda materialni tavsiflay olish ko’nikmasiga ega bo’lishi bilan birgalikda, berilgan savollarni bir-birlariga aloqadorligini ochib bergan holda javob beradi, o’rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi;<br>- bilim va ko’nikmalar mazmunini tadbiq qila olish mahorati, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyotda qo’llay oladi;<br>- talaba mashg’ulotlarga tayyorlangan, dasturiy materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega.<br>**3. Test topshirig’ini baholash** uchun talaba test topshiriqlarini 71-85%ga yechadi;<br>**4. Vaziyatli masalani yechishni baholash:**<br>- talaba mashg’ulotda berilgan vaziyatli masalani o’z vaqtida bajaradi. Vaziyatli masalalarni yechishda ijodiy fikrlaydi, aniq javob beradi.<br>- talaba vaziyatli masalani muhokamasi, munozaralarda qatnashadi,talaba taqdim etilgan o’quv masalalarini yechish yo’llarini izlaydi, turli materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo’ladi, bir tipdagi masalalarni echa olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi. |
| *3 “qoniqarli”.* | *3 “qoniqarli” baho uchun.*<br>**1. Mashg’ulot mavzusi bo’yicha konspekti quyidagilarga javob berishi lozim:**<br>-mavzu bo’yicha ma’ruza materiallaridan prezentatsiya va organayzerlar kam;<br>-manbalardan foydalanmagan;<br>-berilgan uy vazifasi mavzusi bo’yicha tasavvurga ega emas, vazifa bajarilmagan.<br>**2. Mashg’ulotda talabaning nazariy bilimini baholash:**<br>- dastur doirasida to’lik fikrlay olmaydi, mohiyatini tushunadi, lekin to’liq og’zaki yoki yozma javob bermaydi.<br>- mavzu bo’yicha savollarga javob berishda xatoliklarga yo’l qo’yadi, aniq javob berolmaydi va javobini mantiqan asoslay olmaydi.<br>**3. Test topshirig’ini baholash** uchun talaba test topshiriqlarini 55-70%ga yechadi;<br>**4. Vaziyatli masalani yechishni baholash:**<br>- talaba mashg’ulotda berilgan vaziyatli masalani bajaradi, lekin javobini mantiqan asoslay olmaydi. Vaziyatli masalalarni echishda ba’zi noaniqliklarga yo’l qo’yadi.<br>- talaba vaziyatli masalani muhokamasi, munozaralarda to’liq qatnashmaydi, talaba taqdim etilgan o’quv masalalarini yechish yo’llarini izlaydi, turli materiallarni biladi va aytib berishda qiynaladi, bir tipdagi masalalarni yecha oladi, lekin to’liq og’zaki yoki yozma javob bermaydi. |
| *2 “qoniqarsiz”.* | *2 “qoniqarsiz” baho uchun.*<br>**1. Mashg’ulot mavzusi bo’yicha konspekti quyidagilarga javob berishi lozim:**<br>- mavzu bo’yicha konspekt va uy vazifalarini tayyorlab kelmagan talabalarga beriladi.<br>**2. Mashg’ulotda talabaning nazariy bilimini baholash:**<br>- mavzu buyicha aniq tasavvurga ega emas, og’zaki yoki yozma javob bera olmaydi.<br>- mavzu bo’yicha tushuncha yo’q.<br>**3. Test topshirig’ini baholash** uchun talaba test topshiriqlarini 54% gacha yechadi.<br>**4. Vaziyatli masalani yechishni baholash:**<br>- talaba vaziyatli masalani muhokamasi, munozaralarda umuman qatnashmaydi, bir tipdagi masalalarni yecholmaydi.<br>- masalaning mohiyatini tushunmaydi, og’zaki yoki yozma javob bermaydi. |

| Baholash turlari | Maksimal ball | O’tkazish vaqti |
|---|---|---|
| **Joriy nazorat** | **5** | Semestr davomida |
| Amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarligi, to’laqonli ishtiroki va to’g’ri javob berganligi.<br>Mustaqil ta’lim topshiriqlarini o’z vaqtida va sifatli bajarganlishi. | **5** | |
| **Oraliq nazorat** | 5 | |
| **Yakuniy nazorat** | **5** | Semestr oxirida |

| | |
|---|---|
| **6** | Asosiy va qo’shimcha o’quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education EnhancingAcademic Practice 2008, 544 p<br>2. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.<br>3. Psixologiya B.M. Umarov. Darslik -“Voris nashriyot” Toshkent 2012 y.270b<br>**Qo’shimcha adabiyotlar:**<br>4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O‘zbekiston" 2017, 488 b.<br>5. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil qatiiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: "O‘zbekiston" - 2017.<br>6. Getting Started: Idea Book on Pedagogy for New Faculty. Faculty Teaching Excellence Program UNIVERSITY OF COLORADO BOULDER Office of Academic Affairs 2008 82p.<br>7. Sharples, M., McAndrew, P., Weller, M., Ferguson, R., FitzGerald, E., Hirst, T., Mor,Y., Gaved, M. and Whitelock, D. (2012). *Innovating Pedagogy 2012: Open University Innovation Report 1.* Milton Keynes: The Open University. *61p*<br>8. Hayitov O.E. Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar matni to’plami. – T., 2005.120b<br>9. Asamova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz… diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.<br>10. Mavlyanov A va boshq. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi “VORIS-Nashriyot”- T.: 2010.105b<br>11. Mavlyanov A va boshq. Kasb xunar kollejlari faoliyati boshqaruvini takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar “VORIS-Nashriyot”- T.: 2010.105 b<br>**Internet resurslar:**<br>12. www. geosities.com./tyaglo/ctindex.html.<br>13. www.casemethod. |

| | |
|---|---|
| | 14. Ruzaniya_g@rambler.ru.<br>15. www.referat.ru.<br>66. www.inter-pedagogika.ru.<br>77. www.bilimdon uz. |